



5-7-SINF O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TARIXIY INTEGRATSIYALASHUVINI O'RNI

Fazliddinova Gulasal Farxod qizi

Navoiy Davlat Universiteti

“Tasviriy san’at” – magistratura

ta’lim yo’nalishi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15104619>

ARTICLE INFO

Received: 11th March 2025

Accepted: 18th March 2025

Published: 29th March 2025

KEYWORDS

Milliy va xalqaro san’at metodlari, tarixiy integratsiya, vizual tafakkur, zamonaviy pedagogik texnologiya, tarixiy san’at davrlari, madaniy an’analar, fanlararo integratsiya, milliy va umumbashariy madaniy meroslar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada 5-7-sinf o’quvchilarida tasviriy san’at fanini o’qitish metodikasini takomillashtirishda tarixiy integratsiyaning o’rni va ahamiyati tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida milliy va umumbashariy madaniy merosning uyg’unlashuvi asosida o’quvchilarda san’atga bo’lgan qiziqishni oshirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirish hamda vizual tafakkurni shakllantirishning metodik yondashuvlari ko’rib chiqilgan. Maqolada integratsiyalangan yondashuv orqali o’quv jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llashning afzalliklari yoritilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tasviriy san’atni tarix bilan uyg’unlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. U kishining fikricha, Yangi O’zbekistonni tashkil etish yaqin va olis tariximizni, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni chuqur o’rganish va ularga tayanish muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tasviriy san’at fanini umumiy o’rta ta’lim va ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida o’qitish, bu orqali o’quvchilarning individual rivojlanishi, shu bilan birga milliy qadriyatlarimizni, madaniyatimizni asrab-avaylash va rivojlantirishda muhim omillar sirasiga kiradi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at o’quv faniga tarixni integratsiyalab o’qitish yosh avlodning estetik didini rivojlantirish va miliy qadriyatlarimizni anglashga xizmat qiladi.

Tasviriy san’at o’quv fanini tarix bilan bog’lab o’qitishning yutuqlari haqida to’xtalsak:

- o’quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati va tasavvurlarini kengaytirishga erishiladi;
- milliy an’analarimiz va qadriyatlarimiz haqida keng ma’lumotga ega bo’lishadi;
- o’quvchilarda tarixiy me’moriy yodgorliklar, tarixiy shaxslar, miniatyura, xattotlik san’ati kabilarni o’rganish barobarida tarixiy va madaniy meroslarimizga nisbatan qiziqishlari uyg’onadi;
- o’quvchilarni nafislik va go’zallikka bo’lgan e’tiborlari rivojlanadi;
- o’quvchilar jahon tarixini o’rganishlari orqali dunyoni ko’rish, idrok qilish va taqqoslash kabi qobiliyatlari oshadi;
- o’quvchilarda sabr-matонат, mehnatsevarlik va narsa-buyumlarga e’tibor berish qobiliyatlari rivojlanadi;
- o’quvchilarni tasviriy san’atga bo’lgan qiziqishlari ortadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishni takomillashtirish va rivojlantirish hamda bu fanga nisbatan o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish omili sifatida, qo'yidagilarni aytish joiz:

- o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish lozim;
- milliy va xalqaro san'at metodlaridan samarali foydalanish darkor;
- sohaga oid moddiy-texmik bazani kuchaytirish va raqamli san'at texnologiyalaridan unumli foydalanishga keng imkoniyat berish zarur.

Bugungi davrda zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiyalashuv orqali o'quvchilarning bilimni orttirish, estetik didini shakllantirish milliy qadriyatlarni o'rganishni va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tasviriy san'at ta'limini tarix fani bilan integratsiyalashuvi bevosita tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarga o'tmish madaniyatimiz haqida ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'lsada, bugunki kunda sohaga oid metodik materiallarning yetishmasligi, tasviriy san'at mavzularini o'rgatish bilan bog'liq murakkablikning mavjud ekanligi va o'quvchilarning ushbu fanga qiziqishining sustligi ushbu sohada tadqiqotlar olib borish zaruriyatini ko'rsatadi. 5-7-sinflarda tasviriy san'atni o'rganishlari muhimlik kasb etadi. Chunki, bu fan o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida va madaniy ongining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bizga ma'lumki, bu yosh oralig'idagi o'quvchilarning estetik didi va analitik fikrlash qobiliyatlari tez rivojlanadigan davr hisoblanadi.

Yurtimizda tasviriy san'at fanini o'qitishda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, ba'zi kamchiliklar ham mavjud:

- tasviriy san'at darslari uchun mavjud o'quv dasturlarining zamonaviy talab va texnologiyalarga ma'lum ehtiyojning mavjudligi;
- sohaga oid metodik materiallarning yetishmovchiligi;
- ayrim hududlarda soha o'qituvchilarining malakasi va tajribasining yetishmasligi;
- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlarida zamonaviy san'at usullari va texnologiyalaridan foydalanish haqida tushunchalarining ozligi;
- ayrim maktablarda tasviriy san'at o'quv fanidan maxsus xonalarning yo'qligi va jihozlarning (molbertlar, natyurmort uchun turli xil shakllar va boshqalar) yetishmovchiligi;
- tasviriy san'at o'quv faniga nisbatan ayrim o'qituvchilar va ota-onalar orasida ahamiyatsiz fan sifatida qaralishi, bu esa fanga yetarlicha e'tibor berilmasligiga olib keladi;
- ko'p hollarda va ayrim hududlarda boshlan'gich sinf o'quvchilariga mutaxassis o'qituvchi emas balki boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarafidan dars mashg'ulotlarni o'tilishi;
- darslar ko'pincha ma'lum bir qolipga solinganligi, bu esa o'quvchilarning erkin fikrlash va ijod qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Madaniy aloqalarni tasviriy san'at darslariga integratsiya qilishning metodologik asoslari yuzasidan tadqiqot ishimizda qo'yidagi ma'lumotlarni yoritishni lozim topdek:

1. Integratsiyaning konseptual asoslari.

Madaniy meros va san'atning o'zaro aloqasi:

- tasviriy san'at o'qitishda madaniy aloqalarning ahamiyati haqidagi konseptual tushunchalar. Ushbu tushuncha madaniy va ijodiy birlik, umumbashariy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning uyg'unligiga asoslangan bo'lishi lozim.

Madaniy integratsiyaning ta'limdagi o'rni:

- ta'limda madaniy aloqalarni integratsiya qilish faqat qo'shiladigan bilim emas, balki o'quvchilarning insonparvarlik, ijodiy va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan bo'lishligi kerak.

2. Metodologik yondashuvlar.

Tasviriy san'at va tarixni integratsiyalash:

- tarixiy davrlar, madaniy oqimlar va san'at shakllari orasidagi aloqalarni tahlil qilish, o'quvchilarga tasviriy san'at orqali tarixiy hodisalarni va madaniy merosni tushuntirish.

Masalan, o'zbek va jahon san'atidagi asarlarning tarixi va ularning madaniy ahamiyati borasida kengroq ma'lumotlar berish zarur.

Madaniy kontekstda tasviriy san'at shakllarini o'rganish:

– san'at asarlarini, obrazlarini va ularning mazmun-mohiyatini o'z mamlakatimizning va boshqa xalqlarning madaniy merosidan kelib chiqib tahlil qilish. Bundan tashqari, ularni zamonaviy san'at bilan integratsiya qilish ham katta ahamiyatga ega ekanligini nazardan qochirmaslik lozim.

3. Pedagogik texnologiyalar va usullar:

Proyekt metodi va integratsiyalangan o'qitish:

– madaniy aloqalarni tasviriy san'at darslarida projekt asosida integratsiyalash. Masalan, o'quvchilarga tarixiy san'at davrlari, madaniy an'analar yoki tarixiy mavzularni tasvirlashga oid loyihalarni ishlab chiqish zarur.

Interaktiv metodlar:

– madaniy mavzuga doir savollar, interaktiv ko'rgazmalar, multimediya kontentlar, tarixiy va madaniy kontekstdagi tahlillar orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish dardkor.

4. Fanlararo integratsiya.

Tasviriy san'at va adabiyot, tarix, geografiya va madaniyat:

– san'at va adabiyotning integratsiyasi, ta'limda geografik va madaniy aloqalarning ahamiyati. Misol uchun, o'zbek xalqaro san'at maktabi, an'anaviy va zamonaviy san'atni o'rganish orqali xalqning tarixi va madaniyatiga oid bilimlarni shakllantirish kerak.

5. Ijodiy va kritik fikrlashni rivojlantirish.

Madaniy merosni tanqidiy ko'rish:

– o'quvchilarga madaniy merosni tanqidiy ko'rish va zamonaviy san'atga integratsiya qilishni o'rgatish. Bu orqali ular o'zlarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish va dunyoqarashlarini kengaytirishadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, 5-7-sinf o'quvchilarini tasviriy san'atga o'rgatish jarayonida tarixiy integratsiyaning ahamiyati va uning o'quv jarayonini takomillashtirishdagi o'rni chuqur tahlil qilindi. Milliy va umumbashariy madaniy merosni uyg'unlashtirish asosida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati, vizual tafakkuri hamda san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishning yangi metodik yondashuvlari taklif etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarixiy va madaniy aloqalarni tasviriy san'at darslariga integratsiya qilish o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat va umumbashariy madaniyatga qiziqishni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyati mavjud.

Maqolada bayon etilgan metodik taklif va tavsiyalar ta'lim jarayonida yangi innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish hamda ularda tarixiy va madaniy merosga nisbatan chuqur qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Sulaymonov A., Abdullayev N. Tasviriy san'at. 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2014. – 80 b.
2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – T.: "Fan", 2004. – 106 b.
3. Шавди́ров С. А. Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 109-110.
4. Ibraimov X., Shovdirov S. Theoretical Principles of The Formation of Study Competencies Regarding Art Literacy in Students //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B10. – С. 192-198.
5. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.

6. Шавдилов С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари //Современное образование (Ўзбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 15-21.
7. Shovdirov S. Analyzing the sources and consequences of atmospheric pollution: A case study of the Navoi region //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 587. – С. 02016.
8. Shovdirov S. A. TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING SOHAGA OID O'QUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – С. 8-14.
9. Shavdirov S. Method of organization of classes in higher education institutions using flipped classroom technology //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2025. – Т. 3268. – №. 1.
10. Шавдилов С. А. ОСОБЕННОСТИ ПОДБОРА ЦВЕТА В ОБУЧЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ И ПРИКЛАДНОМУ ИСКУССТВУ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2018. – С. 84-85.
11. Shovdirov S. A. TEACHING STUDENTS TO LOGICAL AND ABSTRACT THINKING IN THE FORMATION OF COMPETENCES ABOUT PICTURE LITERACY //JOURNAL OF ARTS AND HUMANITIES. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 40-44.
12. Sulaymonov A., Shovdirov S. UMUMINSONIY VA MILLIY BADIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMI SIFATINI OSHIRISH //Inter education & global study. – 2023. – №. 4. – С. 8-11.
13. Baymetov B. B., Shovdirov S. A. Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 60-66.
14. Guljamol M. SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 191-197
15. Xamidova G.X. CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH VA METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – С. 34-44.
16. Абдуллаев С. Ф. Восточная миниатюра в системе высшего художественно-педагогического образования //Москва: СФ Абдуллаев. – 1996.
17. Абдуллаев С. Ф. Формы организации самостоятельного образования студентов направления изобразительное искусство и инженерная графика //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 271-273.
18. Абдуллаев С. Ф. Муродова Муясар Хикматовна Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2. – С. 81.
19. Абдуллаев С. Ф., Козимова М. А. ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СРЕДСТВАМИ НАРОДНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-2. – С. 650-656.
20. Shovdirov S. A. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TALABLARI //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 13. – С. 527-533.